

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'ZLARNI TURKUMLARGA TASNIFLASH MASALASI

Narziyeva Nazokat Abdurasulovna

*SamDChTI akademik litseyi ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi, SamDU mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida so'zlarni turkumlarga tasniflash masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. So'z turkumlari haqidagi ilmiy qarashlarning shakllanishi, ularning morfologik, semantik va sintaktik belgilari asosida tasniflanishi yoritiladi. Shuningdek, turli tilshunoslarning so'z turkumlari borasidagi yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, zamonaviy o'zbek tilshunosligida mavjud muammolar va yechimlar ko'rsatib beriladi. Maqola natijalari o'zbek tili grammatikasini o'rganish va o'qitishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *so'z turkumlari, tasniflash, morfologiya, leksik-grammatik xususiyat, sintaksis, o'zbek tilshunosligi, grammatik kategoriya.*

O'zbek tilshunosligida so'z va uni turkumlarga tasniflash masalasi o'zining uzoq tarixiga egadir. So'zlarni turkumlarga ajratish masalasi antik davrdan buyon tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri sifatida mutaxassislar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Qadimgi hind tilshunosligidan quvvatlangan arab tilshunosligida ham so'zlar ism, fe'l va harf (yordamchi)larga ajratilgan. Buyuk qomusiy olimlarimiz Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning lingvistik qarashlarida ham bu borada fikr-mulohazalar bildirilgan.

Jumladan, Farobiy so'z turkumlarini tasniflashda arab grammatikasi an'analari asoslanib, ot, fe'l va harflarga ajratadi. U ot va fe'llarning grammatik kategoriyalari haqida so'z yuritib, ot va fe'llar uchun jins (er-xotinlik), son (birlik-ikkilik-uchlik) kategoriyalari xos ekanligini, shu bilan fe'llarning o'ziga xos belgisi zamon (o'tgan-hozirgi-kelasi zamon) bildirishi ekanligini ta'kidlaydi.

Buyuk tilshunos alloma Mahmud Koshg'ariy ham arab tilshunosligi an'analari asosida turkiy tillarda ham uchta so'z turkumi borligini e'tirof etadi: otlar (ismlar), fe'llar va yordamchilar (harflar). U bu so'z turkumlari ichida ayniqsa fe'llarni chuqur tahlil etadi. Fe'llarning zamon, nisbat shaxs kategoriyalari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Tilshunoslik ilmining asoschilaridan biri Mahmud Zamaxshariy bu borada juda sermahsul ijod qilgan. U ko'p o'rinlarda hatto arab tili grammatikasining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Zamaxshariyning grammatikaga doir asarlari ichida "Al-Mufasssal" arab tili morfologiyasi va sintaksisini o'rganishda eng muhim qo'llanma

sifatida Sharqda ham, G'arbda ham katta shuhratga ega bo'lgan. Bundan tashqari, uning "Muqaddimat ul-adab" asari ham tilshunoslik fani uchun muhim qimmatga egadir. Asarda so'z turkumlari besh qismdan: 1) ot; 2) fe'l; 3) bog'lovchilar; 4) ot o'zgarishlari; 5) fe'l o'zgarishlaridan iborat deyilgan.

O'zbek tili taraqqiyotida muhim o'rin tutgan namoyandalardan biri – Alisher Navoiydir. Alisher Navoiyning morfologik qarashlari "Muhokamat ul - lug'atayn" asarida bayon qilingan. U ham o'sha davrdagi arab grammatikasi an'anasiga ko'ra, so'zlarni uch guruhga ismlar, fe'llar va harakatlar (yordamchilar)ga ajratgan. Vaholanki, Alisher Navoiy so'z turkumlarini tasnif etishda arab sarfi an'anasiga bo'ysunsa ham, lekin turk tilining o'ziga xos xususiyatlarini, otlarning va fe'llarning xarakteri morfologik jihatlarini zukko tilshunos sifatida ochib berdi.

O'zbek tilining rus turkiyshunoslari tomonidan o'rganilishi XIX asrning ikkinchi yarmidan, ya'ni chor Rossiyasi O'rta Osiyoni ishg'ol etganidan so'ng boshlangan. Dastlab o'zbek tilini o'rganish bo'yicha turli qo'llanmalar, harbiy tarjimonlik kitoblari, mustaqil o'rganish va so'zlashuv kitoblari yozilgan va nashr etilgan.

Bu kitoblardan ko'zlangan maqsad O'rta Osiyoda harbiy xizmatini o'tayotgan yoki turli amaldorlik vazifalarini bajarayotgan ruslar uchun o'zbek tilini amaliy ravishda o'rgatishdan iborat edi.

O'zbek tilini o'rganish bo'yicha dastlabki rus tilidagi kitob M.A.Terentev tomonidan yozilgan bo'lib, "Turk, fors, qirg'iz (qozoq) va o'zbek tillarining grammatikasi" (Sankt-Peterburg, 1875) deb nomlangan. Bundan tashqari, Z.A.Alekseevning «Sart tilining o'z-o'zidan ta'lim olish darsligi, o'qish, yozuv va sart tilining grammatikasi» (Qozon, 1884), V.Nalevkin va M.Nalevkinalarning "Ruscha – sartcha va sartcha – ruscha lug'at" (Qozon, 1884) hamda «Sart tili Andijon shevasining grammatikasi (Qozon, 1884), N.Ostroumovning «Rus Turkistoni sartlarining shevalarini o'rganishga doir materiallar» (Qozon, 1889), A.B.Starchevskiyning «Rus kishisining O'rta Osiyodagi yo'ldoshi» (SPb, 1878) Z.A. Alekseev va A.Vishnegorskiyning «Sart tilini mustaqil o'rganish» (Toshkent, 1884), S.A.Lapinning «O'zbek tilining qisqacha grammatikasi» (Samarqand, 1894), V.Nalevkinning «Sart tilining amaliy o'rganish uchun qo'llanma» (Samarqand, 1894), I.A.Belyaevning «Sart tilini o'rganish uchun qo'llanma» (Toshkent, 1906), A.Kuznetsovning «Tojik va sart tillarining chag'ishtirma grammatikasi» (Toshkent, 1915) kabi asarlar maydonga kelgan edi [8, 12-15-b].

Bu kitoblarning deyarli barchasi o'zbek tilini tez va oson o'rgatishga mo'ljallangan bo'lib, ularda o'zbek tili grammatikasini yaratishga emas, balki asosan o'zbek og'zaki nutqini eng qulay tarzda egallash yo'llarini izlashga harakat qilingan. Bunda, asosan, rus tili grammatikasidan, uning qonun-qoidalaridan kelib chiqilgan, o'zbek tili hodisalari rus tili qolipiga solib tushuntirilgan. Rus va o'zbek tili qoidalari

o'ta jo'n bir tarzda qiyoslangan. Kitoblar mualliflari zaruriyat taqozosi bilan bunday kitoblar yozishga qo'l urishgan.

Mazkur kitoblarga tilshunos olim H.Berdiyevning munosabatlari quyidagicha:

“Bu asarlar o'zbek tilini o'rganuvchi ruslar uchun bo'lib, o'zbek tilining grammatik qurilishiga, so'z kategoriyalariga va ularning klassifikatsiyasi masalalariga, sintaksis tomonidan bo'linishlariga, orfografiya qoidalariga va boshqa qator masalalarga ilmiy nuqtai nazardan bo'lmay, balki praktik nuqtai nazardan, ma'lum miqdordagi mahalliy ma'murlar manfaatini ko'zda tutib yozilgan asarlar edi” [1, 3-b].

Grammatikaning tarkibiy qismi sanaladigan morfologiyani o'rganishda ham o'zbek an'anaviy tilshunosligining yutuqlari sezilarli bo'lgan. Fitratning «O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba» (Fitrat. o'zbek tili qa'dalar' toqrus'da bir ta'riba. Sarf. Birinci kitab.- Samarqand- Toshkent,1930), X.Qayumiy va S.Dolimovning «Grammatika» (Qajjumij X., Dolimof S. Grammatika. I bolum. Nahv. - Toshkent,1934), Q.Ramazon va X.Qayumiyning «Grammatika. Sarf» (Ramazon Q., Qajjumij X. Grammatika. Sarf.-Toshkent, 1937), O.Usmon va B.Avizovlarning «O'zbek tili grammatikasi» (Usmon O., Avizov B. Ozbek tili grammatikasi.- Toshkent,1939) kabi asarlarda bu sohaga oid materiallar jamlangan [2,102-114].

Bu davr tilshunosligi xususida to'xtalganda, albatta, Abdurauf Fitratning ilmiy faoliyatiga to'xtalib o'tish joiz. U arab, fors, rus, turk tillarini mukammal bilgan holda, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o'zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o'rnini va bundan keyingi istiqbolini belgilab berishga harakat qildi. Fitrat so'z turkumlari, so'zlarning grammatik kategoriyalari haqida ham izchil ma'lumot beradi. U so'zlarni semantik tamoyil asosida, ya'ni qanday ma'noni bildirishiga ko'ra ot, sifat, son, fe'l, olmosh va ko'makchilarga ajratadi. Ko'rinadiki, so'zlarni leksik-grammatik guruhlariga tasniflashda arab tilshunosligi an'alaridan chetlashgan holda Ovrupo tilshunosligi an'alariga asoslanadi. Hozirgi tilshunoslikda yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar hamda modal, undov so'zlar tarkibida o'rganilayotgan lisoniy birliklarning hammasi ko'makchi so'zlar ostida beriladi. Fitrat bu o'rinda “ko'makchi so'zlar” birikmasini “yordamchi so'zlar” birikmasiga sinonim sifatida ishlatgan.

XX asrning 50-yillaridan boshlab morfologiya doirasida so'z turkumlari ham alohida tadqiqot ob'ektiga aylandi. Bu yillarda A.G'ulomovning «Fe'l» (Toshkent,1954), S.Fuzailovning «O'zbek tilida ravish» (Toshkent, 1953), «Hozirgi zamon o'zbek tilida ravish yasalishi» (O'r.OsiyoDU ilmiy asarlari. O'zbek tili masalalari. – Toshkent: SaGU,1957, 94-119-betlar), H.Komilovning «O'zbek tilida son va olmosh» (Toshkent, 1953), Sh.Shoabdurahmonovning «O'zbek tilida yordamchi so'zlar» (Toshkent,1953), Sh.Rahmatullaevning «Hozirgi zamon o'zbek tilidagi son turkumi haqida ba'zi mulohazalar» (O'r.OsiyoDU ilmiy asarlari. O'zbek tili masalalari. – Toshkent: SaGU,1957, 38-55-betlar) kabi tadqiqotlari, F.Kamol

tahriri ostida «O‘zbek tili grammatikasi» (Toshkent,1957), A.N.Kononovning rus tilida «Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi» (M.:L.,1960) nashr etildi.

60-yillardan keyin esa so‘z turkumlarini tadqiq etish ko‘lami yana kengaydi. M.Sodiqovning sifat, S.Nizomiddinovaning son, I.Suyarovning olmosh, R.Qo‘ng‘urovning tasviriy, R.Komiljonovaning modal so‘zlarni tadqiq etishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari yozildi hamda 1963 yilda «Hozirgi zamon o‘zbek tilida son» (S.Nizomiddinova), 1966-yilda «O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar» (R.Qo‘ng‘urov), 1974-yilda «Hozirgi o‘zbek tilida sifat» (M.Sodiqova) nomli monografiyalar, 1978-1979-yillarda ikki qismdan iborat «Hozirgi o‘zbek tilida o‘zgarmaydigan so‘zlar» asari (R.Qo‘ng‘urov) nashr etildi. Ta’limning turli bosqichlari uchun «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» nomi bilan yaratilgan qator darsliklar esa bu borada yuzaga kelgan nazariy qarashlarni ma’um darajada jamladi va umumlashtiruvchi xulosalarni bayon qildi. Shubhasiz, bu xulosalar mustaqil so‘zlar bilan bab-baravar yordamchi so‘zlar guruhiga ham tegishlidir. Bunday ishlarning ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin.

So‘z turkumlariga oid tadqiqotlar orasida «O‘zbek tili grammatikasi»ning akademik nashri alohida o‘rin tutdi va keyingi olib borilgan tadqiqotlarga nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Unda o‘zbek tilidagi so‘z turkumlari quyidagicha tasnif etiladi:

I.Mustaqil so‘zlar: 1) ot; 2) sifat; 3) son; 4) olmosh; 5) fe‘l; 6) ravish.

II.Yordamchi so‘zlar: 1) ko‘makchi; 2) bog‘lovchi; 3) yuklama.

III.Modal so‘zlar.

IV.Undovlar.

V.Taqlid so‘zlar

Xuddi shunday tasnifni U.Tursunov, J.Muxtorov tomonidan 1960-yilda nashr etilgan «Hozirgi zamon o‘zbek tili», Sh.Shoabdurahmonov va boshq. tomonidan 1980-yilda chop etilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili», U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev tomonidan 1992-yilda nashr qilingan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kabi darslik va qo‘llanmalarda ham kuzatish mumkin.

Ayrim darsliklarda, jumladan, A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupovalar tomonidan akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun chiqarilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (2004) darsligida so‘z turkumlari 1) mustaqil so‘zlar; 2) yordamchi so‘zlar; 3) oraliqdagi so‘zlar tarzida 3 ga bo‘linib, taqlidiy so‘zlar modal va undov so‘zlar bilan birgalikda oraliqdagi so‘zlarga kiritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердиёров Н. Нозирги замон ўзбек адабий тилида сўнгқўмакчилар: Филол.фан. номз. ...дис-я. – Самарқанд, 1949, 24 б.
2. Элтазаров Ж. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самаранд: СамДУ нашри, 1996.

3. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши. ДДА. Тошкент, 2007, 22-б.
4. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2009, 257-258-b.
5. Shavkat Rahmatullayev Hozirgi adabiy o'zbek tili.- Toshkent: «Universitet», 2006, 213-b.
6. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.- М.-Л., 1960.
7. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк.- Тошкент: Фан, 1959, 240 б.
8. Пардаев А. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал-стилистик хусусиятлари. НД, Самарқанд, 2005, -156-б.
9. Ўзбек тили грамматикаси. –Тошкент: Фан, 1975, I том, 612 бет.